

O'ZBEKISTONDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARINI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Jumaniyazov Bekzod Ochilovich

PhD dotsent v.b. UrDU.

bekzod.jumaniyazov@mail.ru

Annotatsiya: Fuqarolik jamiyatining muhim belgilaridan biri – bu jamoatchilik fikrining davlat siyosatiga amalda ta'sir ko'rsata olishida namoyon bo'ladi. rivojlangan fuqarolik jamiyatida urf-odatlar, huquq va jamoatchilik fikri ham ijtimoiy institutga aylanadi. parlament va hukumat, siyosiy partiyalar va nodavlat notijorat tashkilotlari jamoatchilik fikri asosida faoliyat yuritadi.

Kalit so'zlar: Fuqaro, fuqrolik jamiyati, demokratiya, huquq, partiya, o'z-o'zini boshqarish, siyosat.

KIRISH

O'zbekistonda 10000 ga yaqin nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat yuritmoqda va ular fuqarolik jamiyati shakllanishining asosi bo'lib xizmat qilmoqda. mazkur tashkilot va uyushmalar xalqning xohish-irodasi, intilishlari, maqsad va manfaatlarini ifodalovchi uyushmalardir.

1988-1991 yillar oralig'ida o'zbekistonda faoliyat olib borgan tashkilotlar, asosan siyosiy o'zgarishlar natijasida ozodlikni tuygan insonlarning mustaqil, norasmiy tashkilotlari bo'lib gavdalangan hamda ular orasida ekologik, ilmiy-madaniy, vatanparvar va boshqa yo'nalishlar ajralib turgan. yana shuni ham qayd etish lozimki, O'z faoliyatining boshlang'ich davrlarida hududiy notijorat tashkilotlari, asosan, o'z faoliyat sharoitlarini yaxshilash maqsadida tuzilgan bo'lsa, 1996-yildan boshlab notijorat tashkilotlari umuman o'zgacha ahamiyat kasb eta boshladi. notijorat tashkilotlar sonining salmoqli va ko'zga ko'rinarli vujudga kelishi 1995-1996 yillar orasida kuzatildi. bu davrda ko'pgina yoshlar tashkilotlari, kasaba uyushmalari ittifoqlari, huquqni himoya qiluvchi tashkilotlar, iste'molchilar huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotlar ro'yxatdan o'ta boshlagan¹.

¹ Жўраев Н., Каримов Ш. Ўзбекистон тарихи. 3-китоб. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – Б 127-149.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mamlakatda nodavlat notijorat tashkilotlarining qonunchilik asoslari har tomonlama rivojlantirib borildi. parlamentda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirishga doir qonunlar va boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ular orasida o'zbekiston respublikasining 1999 yil 14 aprelda qabul qilingan "Nodavlat Notijorat Tashkilotlari to'g'risida"gi qonuni² muhim ahamiyat kasb etdi.

Nodavlat tashkilotlari o'z nizomida belgilangan maqsad va vazifalarni bajarish uchun quyidagi huquqlaridan foydalanadilar:

- davlat organlari va boshqa tashkilotlarda o'z tashkiloti a'zolarining huquq va qonuniy manfaatlarini ifoda etadi va himoya qiladi;
- muhim masalalarni echish maqsadlarida turli tashabbuslar bilan chiqadi, davlat organlariga taklif-tavsiyalari va mulohazalari bilan murojaat etadi;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari qarorlarini qabul qilish, ijtimoiy-siyosiy hayotning dolzarb va muhim masalalarini muhokama etishda ishtirok etadi;
- ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi qonunchilik doirasida o'zlarining ommaviy axborot vositalarini ta'sis etishi, shuningdek, noshirlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin;
- o'z nizomlarida ko'zda tutilgan va belgilangan maqsadlarda ishbilarmonlik bilan shug'ullanishi mumkin yoki o'zining tadbirkorlik tuzilmalarini tashkil etishi mumkin;
- o'z dasturiy maqsadlaridan kelib chiqib yig'ilishlar, konferensiyalar o'tkazishi, turli xil ommaviy tadbirlar(yig'ilish, konferensiya, seminar, forum va hokazolar) o'tkazishi mumkin;
- amaldagi qonun hujjatlari doirasida o'z vakolatxonalari va filiallarini ochishi mumkin.

"Bugungi kunda mamlakatimizda barcha sohalarni modernizatsiya qilish va yangilash jarayonlari yangi bosqichda jadal olib borilmoqda, – degandi prezident

² Ўзбекистон Республикасининг "Нодавлат нотижорат ташкilotлари тўғрисида"ги Қонуни. // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1999 й., 5-сон, 115-модда.

sh.m. mirziyoev. – Hayot talablaridan kelib chiqib, yurtimizdagi ko‘pgina davlat va nodavlat tashkilotlarining faoliyati yanada takomillashtirilmogda”³.

Uyushmaning asosiy maqsadlari sifatida quyidagi faoliyat yo‘nalishlari belgilandi:

– ixtiyoriy ravishda a'zo bo‘lgan nodavlat notijorat tashkilotlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotini yanada erkinlashtirish va demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish, demokratik qadriyatlarni mustahkamlashdagi ishtirokini, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy hayotdagi faolligini, huquqiy davlat asoslarini mustahkamlash va inson haq-huquqlarini himoya qilishdagi o‘rnini yanada kengaytirish;

– davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan muvozanatda o‘zaro va ikki tomonlama manfaatli muzokaralar orqali jamiyatning turli ijtimoiy qatlamlari manfaatlarini ifoda etishda nodavlat notijorat tashkilotlarining ishtirokini ta'minlash⁴.

NATIJARLAR

Har qanday jamiyatda ham davlat kuchli bo‘lgandagina o‘z funksiyalarini ijtimoiy tuzilmalarga o‘tkazib boradi. Ijtimoiy tuzilmalar jamiyat boshqaruvida munosib ishtirok etsa, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishni zimmasiga olsa, har bir fuqaroning davlat va jamiyat boshqaruvida erkin ishtirokini ta'minlashga erishsa, bu jamiyat – kuchli jamiyat, deb tan olinadi. kuchli fuqarolik jamiyati turli xil nodavlat notijorat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, fuqarolarning yuqori saviyadagi siyosiy faolligi bilan xarakterlanadi⁵.

Respublika “ijtimoiy fikr” markazi sotsiologik so‘rovnomasi natijalarida davlat va jamoat tashkilotlari faol ishlamayotganligi ham qayd etilgan. sotsiologik so‘rovnomada ishtirok etganlarning 2006 yili – 32,8%, 2007 yili– 30,5%, 2008 yili – 36,3%, 2009 yili – 26,6%, 2010 yili – 28,7%, 2013 yili – 26,8%, 2016 yili – 20,0

³ “Камолот” ёшлар ижтимоий ҳаракатининг жорий архиви//“Камолот” ёшлар ижтимоий ҳаракатининг IV курултойи материаллари.– Б. 4-5.

⁴ Ўзбекистон нодавлат нотижорат ташкilotларини қўллаб-қувватлаш фонди устави – Т.: 2005. Б. 3-4.

⁵ Саидов А. Фуқаролик жамиятини шакллантириш йўлида // “Халқ сўзи”, 2002, 11 сент.

foizi davlat va jamoat tashkilotlari faoliyatini kuchaytirish darkor, deb ko'rsatgan⁶. 2019 yilga kelib 9500 dan ziyod nodavlat notijorat tashkiloti faoliyat ko'rsatgan⁷. Ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

Birinchi guruh – aholi ma'lum bir kategoriyasining ijtimoiy manfaatlariga xizmat qiluvchi maxsus fondlar (“mahalla” jamg'armasi, xotin-qizlar qo'mitasi, nogironlar assotsiatsiyasi, o'zbekiston yoshlar ittifoqi, “nuroniylar” jamg'armasi va boshqalar).

Ikkinchi guruh – ekologiya, madaniyat va sog'liqni saqlash sohalariga ixtisoslashgan xalqaro va milliy fondlar (“ekosan”, “oltin meros”, “sog'lom avlod uchun”, “ustoz”, amir temur xalqaro jamg'armasi va boshqalar).

Uchinchi guruh – professional manfaatlar bo'yicha jamoat muassasalari (“ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o'rganish markazi, “ma'naviyat targ'ibot” markazi va boshqalar).

To'rtinchi guruh – umummilliy xayriya jamoat fondlari (bolalar jamg'armasi va boshqalar).

Beshinchi guruh – huquqni himoya qiluvchi nodavlat tashkilotlari (o'zbekiston sudyalari assotsiatsiyasi, advokatlar assotsiatsiyasi, inson huquqlarini himoya qilish qo'mitasi va boshqalar).

Oltinchi guruh – ziyolilarning milliy jamoat tashkilotlari (yozuvchilar uyushmasi, o'zbek ximiklari jamiyati, jurnalistlar, kompozitorlar va arxitektorlar uyushmalari va boshqalar).

Ettinchi guruh – o'zbekistonda yashayotgan millatlarning madaniyati, urfodatlarini tiklash va rivojlantirish milliy madaniyat markazlari va boshqalar.

Xalqaro ekspertlar respublikamizdagi nodavlat notijorat tashkilotlarining mamlakat ijtimoiy hayotidagi roli va ahamiyatini oshirish uchun ularning huquqiy bazasini mukammallashtirish, o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlashni rivojlantirish va keng omma orasida nodavlat jamoat birlashmalarining jamiyatdagi o'rni to'g'risida targ'ibot ishlarini olib borishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar.

O'zbekiston respublikasi prezidentining 2013 yil 12 dekabrda “fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga ko'maklashish borasidagi qo'shimcha chora-

⁶ Убайдуллаева Р. Общественное мнения: диалог между обществом и государством // Ижтимоий фикр. Инсон хуқуқлари, 2014. 1 -сон. – Б. 17; “Народное слово”, 2007, 10 март, № 49.

⁷ Ўзбекистон ННТМА жорий архиви, 2014, 21-22 декабрь.//Ўзбекистон Республикаси нодавлат нотижорат ташкилотлари миллий форуми материаллари, //– Б. 3-4.

tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, 2014 yilning 1 yanvaridan nodavlat notijorat tashkilotlari davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun undiriladigan davlat boji miqdori 5 baravar, ularning ramziy belgilarini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun undiriladigan yig'implar miqdori 2,5 baravar kamaytirildi. Endilikda O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan nodavlat notijorat tashkilotlarining alohida bo'linmalari(vakolatxonolari va filiallari)ni, shu jumladan, yuridik shaxs huquqiga ega bo'lganlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga olish uchun davlat boji undirilmaydi. nogironlar, faxriylar, xotin-qizlar va bolalar jamoat birlashmalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun davlat boji mazkur qaror bilan tasdiqlangan davlat boji miqdorining 50 foizi miqdorida undiriladi⁸. mazkur qaror ijrosini ta'minlash maqsadida 2014 yil 10 martda o'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining qarori qabul qilindi⁹.

"2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning besh ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" doirasida "uchinchi sektor"ni yanada rivojlantirish va har tomonlama ko'mak ko'rsatish masalasida, bir qator fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyatini takomillashtirish borasida choralar ko'rildi. "Harakatlar strategiyasi"da belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish maqsadida jamoat tashkilotlarining bir qator yangi nodavlat notijorat tashkilotlarini tashkil etish va qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi takliflari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlandi. fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti, "mahalla", "nuroniy" jamg'armalari, o'zbekiston savdo-sanoat palatasi, "o'zbekiston yoshlar ittifoqi", o'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa er egalari kengashi, "taraqqiyot strategiyasi" markazi, "ezgu maqsad"

⁸ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2013 йил 12 декабдаги "Фуқаролик жамияти институтларини ривожлантиришга кўмаклашиш борасидаги кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги қарори. // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2013 й., 51-сон, 660-модда.

⁹ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2013 йил 12 декабрдаги "Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Фуқаролик жамияти институтларини ривожлантиришга кўмаклашиш борасидаги кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПҚ-2085-сон қарорини амалга ошириш чора-тадбирлари ҳақида"ги қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014 й., 11-сон, 126-модда; 2015 й., 15-сон, 181-модда; 2017 й., 35-сон, 922-модда.

jamgʻarmasi, madaniyat vazirligi qoshidagi “madaniyat va sanʻatni rivojlantirish jamgʻarmasi” shular jumlasidandir¹⁰.

MUHOKAMA

Davlat dasturiga 23 nnt jalb etilgan. ular soni oliy majlis huzuridagi jamoat fondining davlat granti tanlovlari gʻoliblari hisobiga ham koʻpaymoqda. xususan, 2017-2021 yillarda 51 nnt gʻoliblikni qoʻlga kiritdi. qolaversa, assotsiatsiya 575 nodavlat notijorat tashkiloti saʼy-harakatlarini birlashtiruvchi yirik fuqarolik jamiyati instituti ekanligining oʻzi davlat dasturiga jalb etilgan nntlar doirasi kengayishiga katta turtki berdi. assotsiatsiya faollari davlat dasturining birgina 236-bandi ijrosini taʼminlash yuzasidan “farovon yurt” nnt bilan hamkorlikda tashkil etilgan “fidoyimiz senga, oʻzbekiston!” shiori ostidagi xayriya konserti bilan 4,5 ming nafar kishini qamrab oldi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni 2021 — 2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida soʻnggi yillarda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qoʻllab-quvvatlash, davlat organlari va ular oʻrtasida ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish, taʼsirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, shuningdek, ushbu sohani tartibga soluvchi huquqiy bazani takomillashtirish borasida izchil ishlar olib borildi.

Xususan, oxirgi toʻrt yilda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining 1 270 dan ortiq loyihalarini qoʻllab-quvvatlash maqsadida davlat byudjetidan 117 milliard soʻm miqdordagi mablagʻlar ajratildi.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy kafolatlarini taʼminlaydigan, zamonaviy demokratik talablarga va xalqaro standartlarga javob beradigan normativ-huquqiy baza yanada takomillashtirildi. buning natijasida 20 ga yaqin qonun, oʻzbekiston respublikasi prezidentining hujjatlari va hukumatning qarorlari qabul qilindi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari manfaatlarini ifoda etish, davlat bilan ular oʻrtasidagi koʻprik vazifasini bajarishga qaratilgan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi jamoatchilik palatasi tashkil qilindi, shuningdek, aholi bilan ochiq muloqot olib borishning yangi samarali vositalarini joriy etish maqsadida davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyati yoʻlga qoʻyildi.

¹⁰ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мризиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. 22 декабр. 2017 й – Т.: Ўзбекистон. 2018. Б. 34-35.

Mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish, inson huquqlarini, qonuniy manfaatlarini, demokratik qadriyatlarni himoya qilish, aholining siyosiy madaniyati va huquqiy ongini oshirishga munosib hissa qo‘shgan nodavlat notijorat tashkilotlari vakillarini rag‘batlantirish maqsadida «fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi uchun» ko‘krak nishoni ta'sis etildi hamda sohaning 126 nafar faollari ushbu yuksak mukofot bilan taqdirlandi.

Ko‘rilayotgan choralarda natijasida so‘nggi to‘rt yilda fuqarolik jamiyatining eng asosiy instituti hisoblanadigan nodavlat notijorat tashkilotlari soni 20,7 foizga oshdi, shu jumladan 187 ta yirik respublika nodavlat notijorat tashkilotlari o‘z faoliyatini boshladi.

Shu bilan birga, ushbu ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish hamda mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning yaqin va o‘rta muddatli istiqbollari belgilab olish zarur.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, fuqarolik jamiyatining muhim belgilaridan biri – bu jamoatchilik fikrining davlat siyosatiga amalda ta'sir ko‘rsata olishida namoyon bo‘ladi. rivojlangan fuqarolik jamiyatida urf-odatlar, huquq va jamoatchilik fikri ham ijtimoiy institutga aylanadi.

Parlament va hukumat, siyosiy partiyalar va nodavlat notijorat tashkilotlari jamoatchilik fikri asosida faoliyat yuritadi, jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlar va guruhlarining manfaatlarini ifoda etadi va ularni himoya qiladi. Jamoatchilik fikri fuqarolik jamiyati sharoitida baholash funksiyasini bajarishi bilan bir qatorda ijtimoiy aloqalar va munosabatlarni tartibga solish (regulyativ) funksiyasini ham bajaradi. Jamoatchilik fikri fuqarolik jamiyatining instituti sifatida mamlakatda va jahonda kechayotgan jarayonlarga nisbatan, shuningdek, turli tuzilmalar xatti-harakatlariga faol ta'sir ko‘rsata olish qobiliyatiga erishuvi uchun jamiyatda inson huquqlari va axborot erkinligi har tomonlama kafolatlangan bo‘lishi zarur bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Жўраев Н., Каримов Ш. Ўзбекистон тарихи. 3-китоб. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – Б 127-149.

2.Ўзбекистон Республикасининг “Нодавлат нотижорат ташкilotлари тўғрисида”ги Қонуни. // 3.Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1999 й., 5-сон, 115-модда.

4. “Камолот” ёшлар ижтимоий ҳаракатининг жорий архиви//“Камолот” ёшлар ижтимоий ҳаракатининг IV қурултойи материаллари.– Б. 4-5.
5. Ўзбекистон нодавлат нотижорат ташкилотларини қўллаб-қувватлаш фонди устави – Т.: 2005. Б. 3-4.
6. Саидов А. Фуқаролик жамиятини шакллантириш йўлида // “Халқ сўзи”, 2002, 11 сент.
7. Убайдуллаева Р. Общественное мнения: диалог между обществом и государством // 8. Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари, 2014. 1 -сон. – Б. 17; “Народное слово”, 2007, 10 март, № 49.
9. Ўзбекистон ННТМА жорий архиви, 2014, 21-22 декабрь.//Ўзбекистон Республикаси нодавлат нотижорат ташкилотлари миллий форуми материаллари, //– Б. 3-4.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2013 йил 12 декабрдаги “Фуқаролик жамияти институтларини ривожлантиришга кўмаклашиш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори. // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2013 й., 51-сон, 660-модда.
11. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2013 йил 12 декабрдаги “Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Фуқаролик жамияти институтларини ривожлантиришга кўмаклашиш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-2085-сон қарорини амалга ошириш чора-тадбирлари ҳақида”ги қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014 й., 11-сон, 126-модда; 2015 й., 15-сон, 181-модда; 2017 й., 35-сон, 922-модда.
12. Abdalov, U., & Hamrayev, Q. (2015). The System of Servicing on Caravan Roads of the Middle Ages. In *Young Scientist USA* (pp. 119-121).
13. Абдалов, У. М. (2023). Диаспора иранцев (персов) в Хорезме. In *Этнические меньшинства в истории России* (pp. 169-172).
14. Madamin, E., & Matniyazovich, A. U. (2015). Military-administrative Posts and Ranks in the khanate of Khiva during the Reign of Kungirotdynasty (2nd half of the XIXth century and the beginning of the XXth century). *Молодой учёный*, 7, 656.
15. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мрзиевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. 22 декабр. 2017 й – Т.: Ўзбекистон. 2018. Б. 34-35.